

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.I.Madaliyev	
Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	312
K.R.Sadikov	
Mumtoz asarlardagi arxaik so'zlarning lingvistik ahamiyati	316
G.H.Axmedova	
Ingliz adabiyotida Jorj Eliotning ijodi va tanqidiy realizm	318
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari ijtimoiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy jihatlarini	322
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va didaktik asoslari.....	326
B.Q.Nomonov	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining tarjima qilish muammolari.....	330
Sh.S.Tilavova	
Turkiston jadidlarining xotin-qizlar ta'limi haqidagi qarashlari.....	333



UO'K: 101.1

**TEMURIYLAR DAVRI MUTAFAKKIRLARI IJTIMOYIY-AXLOQIY QARASHLARINI
TADQIQ ETISHNING NAZARIY JIHATLARI****ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-МОРАЛЬНЫХ УСТАНОВОК
МЫСЛИТЕЛЕЙ ТЕМУРСКОГО ПЕРИОДА****THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING THE SOCIO-MORAL ATTITUDES OF THE
THINKERS OF THE TEMURIAN PERIOD****Mustayev Ruslan Damirovich** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada Temuriylar davri mutafakkirlari ijtimoiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, ijtimoiy-axloqiy qarashlarining hermenevtik asoslari, Yangi O'zbekistonda Temuriylar davri mutafakkirlarining ijtimoiy-axloqiy qarashlarining tarbiyaviy ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, Temuriylar davri mutafakkirlari ijtimoiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассмотрены теоретико-методологические основы исследования социально-этических взглядов мыслителей эпохи Тимуридов, герменевтические основы их социально-этических взглядов, воспитательное значение социально-этических взглядов мыслителей эпохи Тимуридов. в Новом Узбекистане изучаются. Также проанализировано теоретические аспекты изучения социально-моральных установок мыслителей эпохи Тимуридов.

Abstract

In the article, the theoretical-methodological foundations of researching the socio-ethical views of the thinkers of the Timurid era, the hermeneutic bases of their socio-ethical views, the educational significance of the socio-ethical views of the thinkers of the Timurid era in New Uzbekistan are studied. Theoretical aspects of studying the socio-moral attitudes of the thinkers of the Temurian period was also analyzed.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-axloqiy qarashlar, falsafiy, adolat, ilmiy-metodologik asos, tarbiyaviy, faoliyat, hermenevtik asos, tarixiy-falsafiy tahlil.

Ключевые слова: Эпоха Тимуридов, исторические, социокультурные условия, социальная среда, социально-этические взгляды, философская, справедливость, научно-методологическая основа, образовательная, деятельностьная, герменевтическая основа, историко-философский анализ.

Key words: Timurid era, historical, socio-cultural conditions, social environment, social-ethical views, philosophical, justice, scientific-methodological basis, educational, activity, hermeneutic basis, historical-philosophical analysis.

KIRISH

Jahonda Temuriylar davri mutafakkirlarining ijtimoiy-axloqiy qarashlarini o'rganish, mutafakkirlar, allomalar, mutasavvuflar va ilohiyotshunoslarning hayoti va ijodi, ular ma'naviy merosining barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa Temuriylar davri mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ta'limotlarda aks etgan axloqiy mezonlar, ijtimoiy adolatni ta'minlash prinsiplari, yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi imkoniyatlaridan hozirgi murakkab globallashuv davrida milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish hamda bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirishda foydalanish zarurati saqlanib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Temuriylar davrining ilmiy-ma'naviy meros, mutafakkir allomalarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ijtimoiy ahamiyatiga doir tadqiqotlar A.Arberri, A.Kraft, Sharl Shefer, V.Perch, O.Omer, M.Rajabov, A.Afsahzod, A.Muxammedxodjayev, YE.E.Bertels, A.N.Boldirev, A.D.Knish,

ILMIY AXBOROT

H.Aliqulov, Y.Jumaboyev, Sh.Mamidova, R.Mahmudov, N.Komilov, A.Madramovlar tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, olimlardan B.Valixojayev, I. Haqqul, Sh. Sirojiddinov, S. Sayfulloh, M. Kenjabek, M.N.Boltayev, R.Nosirov, G.Navro'zova, S.Karimov, R.Shodiyev, A.Huseynova, J.Xolmo'minov temuriylar kabi olimlarning monografik tadqiqotlarida o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XIV-XV asrlarda falakiyot ilmidagi ham katta muvoffaqiyotlar qo'lga kiritilganligini ta'kidlab o'tish zarur. 1429-yilda Ulug'bekning Samarqandda rasadxona qurdirishi, falakiyot-riyoziyot maktabiga asos solishi, juda ko'p joylarda madrasalar barpo qildirishi Temur davrida ilm-fan yo'lida boshlangan ishlarning davomi va natijasi bo'ldi. Ulug'bek maktabidan Mansur Koshiy, Maryam Chalabiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Hiyosiddin Jamshid kabi olimlar yetishib chiqib, ular falakiyot hamda riyoziyot ilmlarining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilar.

Rasadxonada o'rganilgan 1018 yulduzning koordinatalari va ularning yulduzlar to'plamlaridagi holatlari va harakatlari haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "Ziji Ko'ragoniy" ("Yangi astronomik jadval") asari XIV-XV asrlardagi ilm-fan taraqqiyotining eng yuksak cho'qqisini tashkil etadi. Bu asarda rasadxonada o'lchash natijasida hosil bo'lgan raqamlar riyoziyot qolipiga tushurilib, ularga xos qonuniyatlar aniqlangan, qoidalar yaratilgan, ya'ni tadqiqot natijalari katalog holiga keltirilgan, vaqt (yil, oy, kun) haqida 20 ta jadval tuzilgan.

XIV-XV asrlarda O'rta osiyoda tabiatshunoslikning ham turli sohalrida tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu davrda tilshunos olimlar, ijodkorlar ham ko'zga ko'rinarli asarlar yaratgan. Temur ularning ijodini diqqat bilan kuzatib yorgan, ishlarini qo'llab-quvvatlagan. O'zi ham badiiy adabiyotga. Ayniqsa paeziyaga juda qiziqqan. Bunga A.Navoiyning quyidagi so'zlari guvohlik beradi. "Temur Ko'ragon... agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xxo'b mahal va mavqeda o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytkonicha bor."

Badiiy adabiyotga ana shunday katta e'tibor bo'lganligi uchun ham Temur zamonidain Shohruh Sulton zamonining oxirigacha turk tilida ijod qiluvchi Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy va boshqa shoir hamda yozuvchilar yetishib qchiqqanini Navoiy mamnunlik bilan qayd qiladi.

Temuriylar davrida o'zining gumanistik g'oyalari bilan nom qozongan alloma Abdurahmon Jomiy bo'lib, u geometriya, astronomiya, kosmografiya, matematika fanlarini puxta o'zlashtirgan, arab tili, falsafa, ritorika, axloqshunoslik borasida yirik asarlar yozgan edi. Allomaning muhim asarlari sirasiga «Bahoriston», «Sharxi ruboiyot», «Haft avrang», «Lavoii», «Nafahot ul-uns» va boshqalar kiradi.

Jomiy ilm-fan bilan shug'ullanishni inson uchun qadri va munosib ish deb bildi. Jomiy kishilarni yoshlikdan tarbiya qilishga, ularga kasb-hunarni egallashga qiziqish uyg'otishga da'vat etdi. Olim johillik, nodonlik, mag'rurlik, o'z boyligi bilan maqtanishni qattiq qoraladi. Jomiy, xuddi Sharqning boshqa mutafakkirlari kabi, davlatni dono, ma'rifatli va adolatli hukmdor boshqarishi lozim, deb o'yladi. Hukmdorning donoligi adolat va qonunlarga amalga qilishida namoyon bo'ladi. Jomiy o'zboshimchalik, qonunsizlik, jabr-zulm, zo'ravonlikdan holi bo'lgan davlat tuzumini orzu qildi. U «Iskandar xiradnomasi» asarida mukammal shahar-davlatni tasvirlaydi. Iskandar uzoq yurishlardan so'ng bir shaharga yetib keladi. U podshohsiz boshqariladi. Bu shahar juda obod bo'lib, unda hamma tinch, kambag'al va boylar yuq, hamma mehnat bilan mashg'ul, odamlari halol va yuksak fazilat egalari.

Shuningdek, temuriylar davrining yana bir mutafakkiri Alisher Navoiy bo'lib, Husayn Boyqaro saroyida turli mansablarda ishlagan va shu bilan birga bir qancha gumanistik asarlar yozgan yuksak tafakkur egasi bo'lagn. She'riyat mulkining sultoni bo'lmish bu adib 30 ga yaqin asarlar muallifidir. Ular adabiyot, nasr va nazm, falsafa, axloqshunoslik, pedagogika, tilshunoslik, musiqa, nafosatshunoslik, tarix, tabiiy fanlar muammolariga bag'ishlangan. Navoiy asarlari jumlasiga «Xazoyinul-maoniy», «Devoni foniy», «Lisonut-tayr», «Majolis un-nafois», «Holoti Sayid Hasan Ardasher», «Vaqqiya», «Munshaot», «Mahbub ul-qulub», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Tarixi muluki Ajam» va boshqalar kiradi. Mutafakkirning shoh asari «Xamsa» besh dostonidan iborat: «Layli va Majnun», «Sab'ayi sayyor», «Xayrat ul-abror», «Farhod va Shirin» va «Saddi Iskandariy».

Navoiy buyuk insonparvar shoir edi. Ul zot asarlarining markazida inson va uning fazilatlarini kuylash turar edi. Uning aytishicha, odam o'zining aqli, qobiliyati, nutqi, xulq-odobi, ongli

xatti-harakati, shirinsuhanligi bilan boshka tirik mavjudotlardan ajralib turadi.

Navoiy o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida hukmdorning faoliyatiga katta e'tibor berdi. U mamlakatni odil va ma'rifatli shoh boshkarishi lozim, deb hisoblaydi. Bunday hukmdor o'z qul ostidagilarga odilona munosabatda bo'lishi, ularga g'amxo'rlik qilishi lozim. Mutafakkirning gumanistik va umuminsoniy qarashlari tinchlik va urush masalasiga munosabatida yorqin namoyon bo'ladi. U butun umri davomida bosqinchilik urushlari va zo'ravonlikka qarshi kurashdi, xalqlarni tinch-totuv yashashga, do'stlikka da'vat etdi.

Navoiy kishilar o'rtasidagi do'stlik va ahillikni kuyladi. Uning qahramonlari turli xalq va elatlarga mansub edi. Iskandar – yunon, Majnun – arab, Shirin – arman, Shopur – eroniy, Farhod – xitoy va hokazo. Navoiy tasvirlagan badiiy timsollar bilimdonligi, zukkoligi, jasurligi, qahramonligi, mehr va muruvvatligi, sahovatpeshaligi, odamiyligi bilan ajralib turadi.

Navoiy islom qonun-qoidalari, Qur'on va shariatga qattiq rioya qildi. U tasavvufning naqshbandiylik sulukiga rioya qilib, ko'prok uning amaliy tomonlariga e'tibor qaratdi. Alloma fikricha, solik Alloh vasliga yetishish uchun bu dunyoda poklanish, xayrli ishlar bilan mashg'ul bo'lishi, tinmay mehnat qilishi, o'zgalarga yordam berishi, salbiy illatlarga qarshi kurash olib borishi lozim.

Mutafakkirning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlari insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan, uning adolat, ilm-fan, ma'rifat, kasb-hunarni egallash, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari hozirgi mustaqillik sharoitida ma'naviy-axloqiy yuksalishga xizmat qilmoqda.

Temuriylar davrining yetuk mutafakkirlaridan biri Husayn Voiz Koshifiy bo'lib, uning to'liq ismi Husayn ibn Ali Bayhaqiy Sabzavoriy bo'lib, Kamoliddin esa uning laqabidir. Yoshligidan voizlik, ya'ni, notiqlik bilan shug'ullanganligi sabab Voiz Koshifiy taxallusi bilan ham mashhur bo'lgan.

Husayn Voiz Koshifiy hayoti haqida ma'lumotlar kam bo'lsa-da, lekin uning ma'naviy merosi haqida ko'plab manbalarda xabar berilgan. Temuriyzodalarning toju taxt uchun kurashgan eng tahlakali va murakkab davrida yashagani va bu jarayonlarda o'zi ham bevosita va bilvosita ishtirok etgani bois Husayn Voiz Koshifiy o'zining asarlarida diniy-ijtimoiy nizolarni mo'tadillik va bag'rikenglik asosida hal qilishga katta e'tibor qaratgan. Bunda unga buyuk olim, o'z davrining yetuk mutafakkiri, shoir Alisher Navoiy katta yordam beradi va bevosita rahnamolik qiladi.

Koshifiyning o'ziga xos yana bir jihati u juda kuchli va ta'sirli notiq edi. Manbalarda Alisher Navoiy o'zi yozgan madhiya yoki marsiyalarini faqat unga o'qitibgina ko'ngli taskin topgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Chunonchi, Jomiy vafotiga Navoiy yozgan quyidagi marsiya bunga yaqqol isbot bo'la oladi. «Ul jumladin huruf roqimi bu marsiya bilan tarixni aytib, yili oshi tortarda sultoni Sohibqiron (Husayn Bayqaro) oliy majlislarida o'tkardi va hukm bo'ldikim, mavlono Husayn Voiz minbar ustida o'qidi ...». Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Voiz Koshifiyning nafaqat ilmi, balki uning odobu axloqi ham yuksak darajada bo'lgani uchun Alisher Navoiy va Husayn Bayqarolar uni hurmat va ehtirom qilib, o'z majlislarida uning va'z-nasihatlarini tinglaganlar. Bu borada Mir Said Sharif Roqim: «Mavlono Kamoliddin Husayn Ali Voiz Koshifiy baland ovozda yaxshi va'z qilgani uchun olimlar va fozillar o'zlarining xos majlislarida uni taklif qilishar edi», – deb yozadi.

Koshifiy o'zi o'rgangan ilmu ma'rifatiga tayangan holda ko'plab asarlar yozib qoldirgan. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Koshifiy falsafa, axloq, tilshunoslik, siyosat, din tarixi, voizlik, she'r san'ati kabi fanlarga oid 40 dan ortiq asar ta'lif qilgan. Jumladan, «Axloqi Muhsiniy» (Yaxshi xulqlar), «Risolai Hotamiya», «Anvori Suhayliy», «Axloqi Karim», «Javohirnoma», «Tafsiri Husayniy», «Futuvvatnomai Sultoniy» kabi asarlar shular jumlasidandir.

Husayn Voiz Koshifiyning eng mashhur asari «Axloqi Muhsiniy» bo'lib, bu asar 40 bobdan iborat, boshlang'ich boblarda ibodat, duo, ixlos va boshqa tushuncha, atamalar bayoni, keyingilarida esa, podshoh va yuksak martabali davlat arboblarning vazifalari, axloq-odobi, mulozimlari bilan munosabati juda ko'plab tarixiy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida yoritilgan. Kitobda axloqqa oid boshqa mashhur asarlarga iqtibos va havolalar ko'plab uchraydi. Shuning uchun, Koshifiy o'zini musannif, ya'ni «asar tuzuvchisi», deb atagan.

Koshifiy «Axloqi Muhsiniy» asarida Xuroson va Movarounnahrda mahalliy an'analarni o'ziga singdirgan, turli din hamda millat vakillariga nisbatan bag'rikenglik bilan yondashgan. Shu jihatdan asar komil insonning eng yuksak axloq-odobi tarannum etilgan nodir manba hisoblanadi. Ota-

ILMIY AXBOROT

bobolarimizdan bizga meros qolgan diniy qadriyatlar o'z bahosini olayotgan jamiyatimizda Koshifiyning asarlari o'sib kelayotgan barkamol avlodni tarbiyalash, mustahkam oila barpo etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Temuriylar davrida ilm-fanning taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan omillardan biri qat'iy tartib o'rnatishga erishganligi, har bir ishni, shu jumladan, ilm va ta'lim ishlarini belgilangan qonun va qoidalarga muvofiq amalga oshirganini, bu qonun-qoidalarni esa saltanatdagi kishilarning turli xil toifalari bilan bog'lab tuzgani asos bo'lishi aniqlandi. Amir Temurning ulamo, fuzalo, fozillar toifasiga (birinchi toifa) alohida etibor bergani, ularni o'ziga yaqinlashtirishga harakat qilgan, davlat miqyosida amalga oshiriladigan tadbirlarni belgilash, muhim qarorlar qabul qilishdan avval kengashlar chaqirib, ular bilan maslahatlashgani sohibqironning ilm-fan ahliga katta ishonch bildirganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А. Навоий. Асарлар, 12-том, "Мажолисун нафоис", еттинчи мажлис, Т., 1967, 169-бет
2. А.Жомий. «Искандар хираднома»си. Қўрсатилган асар. 221-225-б.
3. Дуктур Муҳаммад Муъин. Фарҳанги Форсий. – Техрон, 1371. – Б. 16.
4. Ибн Халдун. Ал-Муқаддима.–Ал-Қоҳира: Дор ал-китаб Ал-Мисрий ва ал-Лубнаний, 1999. –В.10.
5. Тўғон А. З. Волидийнинг Туркистонга илмий сафари. "Тарихда усул" асаридан А. Зоҳидий таржимаси.–Тошкент, 1997. – Б. 135
6. Улуғбек. Зиж Кўрагоний-Т, Қори Ниёзий. Улуғбек ва унинг илмий мероси. Тошкент., 1971 110-159 бетлар